ligi tizimning mantiqiy izchilligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, birinchi darajada (gipotaksis va parataksis) sintaktik strukturadagi ichki bog'lanish mexanizmi asosiy kriteriy sifatida qabul qilinsa, ikkinchi darajada (endotsentrik va ekzotsentrik) birikma komponentlari va ularning leksik-semantik yukining matn kontekstidagi funksional mavqeyi mezon hisoblanadi. Uchinchi darajada endotsentrik birikmalarni ajratishda unsurlarning koordinativ yoki subordinativ aloqasi asos qilib olingan bo'lsa, ekzotsentrik birikmalarda tasnif sintaktik-morfologik xususiyatlarga – predikativlik yoki prepozitsionallikka – bog'liq holda amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). https: // lawbooks.news/grammatika_948/203-uchenie-slovosochetanii-zarubejnoy-53013.html
(2). Блумфилд Л. Язык. Москва, "Прогресс", 1968, 606 с.
(3). Sweet H. A New English Grammar, Logical and Historical, p.II, Oxford, 1930, p. 18–19.
(4). Hockett Ch. A Course in Modern Linguistics, N-Y., "Macmillan", 1958, p.186.
(5). https://ru.wikipedia.org/wiki/ Parataksis.
(6). https://ru.wikipedia.org/wiki/ Gipotaksis.

Ibragimov Javlon Yormatovich (Axborot texnologiyalari va menejment universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori)

O'ZBEK TILINI AMALIY TADQIQ QILISH ZARURATI O'ZBEK TILSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI KESIMIDA

Annotatsiya. *Davr o'zbek tilshunosligi oldiga o'zbek tilidan amaliy foydalanish samaradorligini oshirish, qo'llanish doirasini kengaytirish muammolari bilan shug'ullanishga jiddiy kirishish vazifasini qo'ymoqda. Bu yangi asr tilshunosligi zimmasiga yuklatilayotgan ijtimoiy buyurtma.*

Kalit so'zlar: *tilshunoslik, o'zbek tili, buyurtma, davr, ijtimoiy amaliyot.*

Ибрагимов Жавлон Ёрматович (Университет информационных технологий и менеджмента доцент, доктор филологических наук)

НЕОБХОДИМОСТЬ ПРАКТИЧЕСКОГО ИЗУЧЕНИЯ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА В РАЗРЕЗЕ РАЗВИТИЯ УЗБЕКСКОЙ ЛИНГВИСТИКИ

Аннотация. *Период ставит перед узбекской лингвистикой задачу всерьез заняться проблемами повышения эффективности практического использования узбекского языка, расширения сферы его применения. Это социальный порядок, который возлагается на лингвистику нового времени.*

Ключевые слова: *лингвистика, узбекский язык, порядок, период, социальная практика.*

Ibragimov Javlon Yormatovich (University of Information Technology and Management Associate Professor, Doctor of Philology)

NEED FOR PRACTICAL STUDY OF THE UZBEK LANGUAGE IN THE DEVELOPMENT OF UZBEK LINGUISTICS

Annotation. *The period sets the Uzbek linguistics the task of seriously dealing with the problems of increasing the effectiveness of the practical use of the Uzbek language, expanding the scope of its application. This is a social order that is imposed on the linguistics of the new time.*

Keywords: *Linguistics, Uzbek language, order, period, social practice.*

Kirish (Introduction). Tilshunoslik fani XIX asrda mustaqil fan sifatida shakllanib, davr talablariga o'z muammolari doirasida javob bera boshlagan bo'lsa-da, undan avvalgi davrlarda boshqa fanlar tarkibida mavjud bo'lib, jamiyatning ijtimoiy buyurtmalarini qabul qilib, ularni amalga oshirish bilan shug'ullangan edi.

X–XI asrlar o'zbek xalqi tarixida o'ziga xos taraqqiyot tendensiyalari bilan ajralib turadi. X asrning birinchi yarmida Yettisuv va Qo'shg'ar mintaqalarida yashovchi qarluq, chig'il va yag'mo qabilalari ijtimoiy-iqtisodiy hayotda yangi rivojlanish bosqichiga o'tdi. Iqtisodiy hayotdagi o'zgarishlar quyidagicha namoyon bo'ldi: ko'chmanchi turmush tarzi o'troq hayotga aylandi, o'troqlashuv dehqonchilikning kuchayishiga olib keldi, bu esa, o'z navbatida, shaharlarning vujudga kelishiga va savdo-sotiq faoliyatining rivojlanishiga sabab bo'ldi. Ayniqsa, ushbu hududdan o'tgan qadimiy karvon savdo yo'lining mavjudligi ishlab chiqarish va tijoratning yuksalishiga muhim ta'sir ko'rsatdi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Iqtisodiy o'zgarishlar ijtimoiy taraqqiyot bilan parallel ravishda kechdi. O'troqlashuv natijasida dehqonchilikning yangi sifat bosqichiga o'tishi feodal yer egaligi tizimining har tomonlama rivojlanishiga turtki berdi. Mulkiy va sinfiy tabaqalanish jarayonlari kuchaydi. Xulosa qilib aytganda, "murakkab ichki jarayonlar, feodal dehqonchilik dunyosi va karvon yo'lidagi boy savdo-hunarmandchilik shaharlarining bevosita ta'siri chorvador turk qabilalarining

ijtimoiy hayotida ilk feodal munosabatlarning shakllanishida asosiy omil bo‘ldi. Buning oqibatida bu hududlarda siyosiy vaziyat nihoyatda keskinlashib ketdi” [1;109-b.].

Qoraxoniylar davlatining tashkil etilishida qarluq va chig‘il qabilalari, xususan, qarluqlar muhim rol o‘ynadi. Ushbu davr madaniy rivojlanishida o‘ziga xos “kichik ellinizm” kuzatiladi. “Qoraxoniylar davlatiga madaniy jihatdan rivojlangan ikki xalq – Sharqda uyg‘urlar va G‘arbda turk-eronlar birlashdi. Ular madaniyati birlashib, o‘sha davr tiliga ham kuchli ta’sir qildi. Natijada Sharqda qarluq-chigil-uyg‘ur dialekti asosida sharqiy adabiy til rivojlandi” [2;34-b.]. Bu lahja tarkibida qarluq unsuri ustun mavqega ega edi. Mahmud Koshg‘ariy tilshunoslik dalillari orqali qabilalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar, lahjalarning birbiriga ta’siri hamda ularga asos bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy omillarning o‘rni va ahamiyatini keng qamrovli va chuqur tahlil qilib ochib bergan [3;34-b.].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Turk xoqonligida urug‘ va qabilalarning xalq bo‘lib shakllanishi uchun ijtimoiy-siyosiy imkoniyat vujudga keladi. “Bu vaqtda g‘arbiy xoqonlikda qarluq, qang‘li, turgesh, chigil, uyg‘ur urug‘lari birlashgan edi. Bular orasida qarluqlar katta o‘rinni egallaydi (ajratish bizniki – J.I.). Bu urug‘lar qadimda Oltoyning g‘arbiy qismidan kelib, Farg‘ona va Toshkent havzasiga joylashadi. Xalaj va qarluq urug‘lari, avvalo, Yettisuvda, qang‘lilar Qozog‘iston va Qirg‘iziston yerlarida, yag‘molar Issiqko‘lning janubi va Sharqiy Turkistonda, turgeshlar Balxash ko‘lining janubida, chigil (chigli)lar esa Issiqko‘l atrofida yashab, keyinroq O‘zbekiston hududiga ham ko‘chadi va mahalliy urug‘lar bilan qo‘shilib ketadi. Turkiy urug‘ va qabilalarning o‘troqlashishi katta shaharlarning paydo bo‘lishi turk xalqi hamda umumturkiy xalq tilining shakllanishida katta rol o‘ynadi. Bu vaqtda uch xil yozuv (xorazm, so‘g‘d, run yozuvlari) mavjud edi” [4;13–14-b.].

Qabilalar orasida madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan yetakchi bo‘lgan qarluq qabilasi turkiy yag‘mo, chig‘il, uyg‘ur, qipchoq hamda noturkiy eroniy va arabiy xalqlar tillarining xususiyatlari bilan uyg‘unlashib, strukturaviy jihatdan o‘ziga xos dialekt shakllantira boshladi. Ayniqsa, X asr oxirlarida Yettisuv va Qashqar mintaqasida Qoraxoniylar davlatining tashkil topishi, bu davlatning, asosan, qarluq va chig‘il urug‘laridan iborat bo‘lishi [4;14-b.] va unda qarluqlarning ustunligi qarluq dialektining o‘ziga xos xususiyatlarga ega turkiy til darajasiga ko‘tarilishida hal qiluvchi omil bo‘ldi. Natijada lahja mustaqil til maqomiga qarab rivojlana boshladi. “Bu bosqichda o‘zbek xalqi va uning umum tilining shakllanishiga zamin tayyorlana boshlaydi. Boshqa qardosh turkiy xalq va tillarning shakllanishi ham shu davrga to‘g‘ri keladi” [4;20-b.].

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Qoraxoniylar davlatida qarluq lahjasi turli manbalarda turlicha nomlar bilan yuritilgan. Zamonaviy ilmda eski turkiy til atamasi bilan belgilanuvchi qarluq turkiysi “turkiy”, “sharqiy turkiy”, “chig‘atoy tili” kabi nomlar bilan ham atalgan [5;37-b.].

Manbalarda Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asariga lingvistik va ensiklopedik manba sifatida qaralganda, uning tarixiy va ilmiy ahamiyati haqida so‘z borganda, quyidagi fikrlar tez-tez uchraydi: “XI asrga kelib shahar va qishloqlardagi qabilalar o‘rtasidagi munosabatlarning rivojlanishi natijasida tilda xilma-xil formalar qo‘llandi. Bu esa tilda ma’lum normalar yaratishga ehtiyoj tug‘dirdi. Shu ehtiyoj Mahmud Koshg‘ariyni “Devoni lug‘otit turk” asarini yozishga da’vat etdi” tarzidagi e’tiroflar ko‘p uqtiriladi” [2;34–35-b.].

Mahmud Koshg‘ariyda aloqa va muomala jarayonidagi turkiy qavmlarning tillari uchun me’yorlar yaratish istagi shakllanayotgan tilning umumturkiy tildan ajralib, mustaqil rivojlanish yo‘liga o‘tganligini, uning alohida til ekanligini ko‘rsatuvchi fonetik, leksik-grammatik xususiyatlarini o‘rganish va ilmiy asoslash ijtimoiy-ma’naviy jihatdan muhim bo‘lib, Qoraxoniylar davlatining mafkuraviy asoslarini mustahkamlashga xizmat qilgan. Bu davr talabi, ijtimoiy ehtiyoj va sosial buyurtma edi. Shu sababli Mahmud Koshg‘ariyning ushbu asari hamda topilgan boshqa bir asari – “Javohir un-nahv”ni yozishdagi maqsad va vazifalarini ijtimoiy ehtiyoj va davr talabi kontekstida quyidagicha baholash mumkin: ijtimoiy nuqtayi nazardan, xoqonlikdagi xalqlarning jipsligini mustahkamlash, mafkuraviy jihatdan xoqonlikdagi yetakchi xalqning madaniy saviyasini yoritish, lingvistik jihatdan eski o‘zbek tilining lingvistik bahosini berish kabi bir-birini kuchaytiruvchi zaruratlar ijtimoiy ehtiyoj sifatida namoyon bo‘lgan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Ijtimoiy buyurtma o‘sha davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy-mafkuraviy yuksalish asosida shakllanganligi bilan birga, fan va madaniyatning rivojlanish darajasi ham turkiylar tilining lingvistik xususiyatlarini o‘rganishga muhim turtki bo‘lib xizmat qilgan edi. Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv, Balx, Nishapur kabi markaziy shaharlar gullab-yashnagan bu davrda kitobat va kitob savdosi, o‘z navbatida, kitobxonlik misli ko‘rilmagan darajada rivojlangan. Kitob rastalarida diniy va dunyoviy ilmlarga oid nodir asarlar sotilgan. Ibn Sinoning Buxoro bozoridan Abu Nasr Forobiy qalamiga mansub “Arastu “Metafizika”siga sharhlar” kitobini uch dirhamga sotib olganligi

haqidagi xotiralari uning asarlarida saqlanib qolgan. Qoraxoniylar davriga qadar hukm surgan Somoniylar saltanati davridagi siyosiy barqarorlik va iqtisodiy yuksalish sharoitida fan va madaniyat gullab-yashnagan. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Abdulloh Xorazmiy, Muhammad Narshaxiy kabi o‘z davrining buyuk allomalari qoldirgan boy va nodir ilmiy meros keyingi davrlarda fanlarning rivojlanishiga kuchli turtki berganligi yaqqol namoyondir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Муҳаммаджонов А. Ўзбекистон тарихи. 6-синф тарихи ўқитувчилари учун қўлланма. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1994, 109-бет.

(2). Турсунов У., Ўринбоев Б. Ўзбек адабий тили тарихи. Педагогика институтларининг филология факультетлари студентлари учун қўлланма. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1982, 34-бет.

(3). Кошғарий М. Девони луғотит турк. I том, Тошкент, ЎзССР Фанлар академияси нашриёти, 1960, 34-бет.

(4). Абдураҳмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Морфология ва синтаксис, университетларнинг филология факультетлари ҳамда педагогика институтларининг тил ва адабиёт факультетлари учун қўлланма, Тошкент, “Ўқитувчи”, 1973, 13–14-бетлар.

(5). Сайфуллаева Р., Менглиев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Дарслик, Тошкент, “Фан ва технологиялар”, 2010, 37-бет.

(6). Турсунов У., Ўринбоев Б. Ўзбек адабий тили тарихи. Педагогика институтларининг филология факуль-тетлари студентлари учун қўлланма, Тошкент, “Ўқитувчи”, 1982, 34–35-бетлар.

Abdug‘aniyeva Mohibonu Norbobo qizi (Guliston davlat Pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi;
E-mail: mamasogliyevamohibonu@gmail.com

MULTIMODAL VOSITALARNING QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillari materiallari asosida multimodal vositalarning qiyosiy tahlili amalga oshiriladi. Tadqiqot verbal va noverbal birliklar nisbatini aniqlash hamda multimodal strategiyalarning madaniy va kommunikativ xususiyatlarini yoritishga qaratilgan. Sifatli va qiyosiy metodologiya asosida reklama, ijtimoiy axborot va raqamli mediamatnlari tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, ingliz tilidagi multimodal matnlarda vizual minimalizm va individual murojaat ustuvor bo‘lsa, o‘zbek tilidagi matnlarda verbal birliklarning keng qo‘llanilishi hamda emotsional va kollektiv qadriyatlarga yo‘naltirilgan strategiyalar yetakchi o‘rin egallaydi. Tadqiqot xulosalari multimodal diskurs tahlili va madaniyatlararo kommunikatsiya sohalari uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *multimodal diskurs, verbal va noverbal birliklar, qiyosiy tahlil, multimodal strategiyalar, madaniyatlararo kommunikatsiya.*

Абудганиева Мохибону (независимый исследователь Гулистанский государственный педагогический институт; E-mail: mamasoliyevamohibonu@gmail.com)

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ МУЛЬТИМОДАЛЬНЫХ СРЕДСТВ

Аннотация. *В статье проводится сравнительный анализ мультимодальных средств на материале английского и узбекского языков. Исследование направлено на выявление соотношения вербальных и невербальных единиц, а также на анализ мультимодальных стратегий с учетом культурных и коммуникативных факторов. На основе качественной и сопоставительной методологии анализируются рекламные, социальные и цифровые медиатексты. Результаты показывают, что в англоязычных мультимодальных текстах преобладают визуальный минимализм и индивидуально ориентированные стратегии, тогда как в узбекоязычных текстах доминируют развернутые вербальные средства и эмоционально насыщенные, коллективно ориентированные модели коммуникации. Полученные выводы имеют теоретическое и прикладное значение для исследований мультимодального дискурса и межкультурной коммуникации.*

Ключевые слова: *мультимодальный дискурс, вербальные и невербальные средства, сравнительный анализ, мультимодальные стратегии, межкультурная коммуникация.*

Abdug‘aniyeva Mohibonu (Independent researcher at Gulistan State Pedagogical Institute;
E-mail: mamasoliyevamohibonu@gmail.com)

A COMPARATIVE ANALYSIS OF MULTIMODAL RESOURCES

Annotation. *This article presents a comparative analysis of multimodal resources based on English and Uzbek language data. The study focuses on the ratio of verbal and non-verbal elements and examines multimodal strategies from cultural and communicative perspectives. Using qualitative and comparative methodology, advertising, social, and digital media texts are analyzed. The findings indicate that English*